

OILADA AYOLLARGA NISBATAN ZO`RAVONLIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

M.R.Sultonova

O`zbekiston, Urgench

Annotasiya: *Ma'lumki zo'ravonlik inson qadr-qimmati va sha'ni bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik muammo sanaladi. Aynan mazkur muammo sababli oilada zo'ravonlikni boshdan kechirgan ayollarda ijtimoiy-psixologik dezadaptasiya yuzaga kelishi kuzatiladi. Ya'ni, ularda vaziyat bilan bog'liq shaxsiy xavotirning ortishi natijasida, dezadaptasiya jarayoni kuzatiladi.*

Kalit so'zlar: *Adaptasiya, oilada zo'ravonlik, shaxsiy xavotir, vaziyatli xavotir, "siki", o'z-o'zini nazorat qilish, tajavuzkorlik, tahdid, emosional bosim, ichki resurs, muloqot.*

Shaxs shakllanishining asosiy bo'g'ini oila hisoblanadi. Oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi[1,2]. Oiladagi ijtimoiy—psixologik munosabatlar nafaqat shaxsning psixologik sog'ligiga, balki, ijtimoiy munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bugungi kunda oiladagi zo'ravonlik muammosi tobora dolzarb ko'rinishga ega bo'lmoqda. Oiladagi zo'ravonlik - bu yaqinlar ustidan hokimiyat va nazoratni ko'rsatish uchun ularning irodasiga qarshi sodir etiladigan, muntazam ravishda takrorlanadigan jismoniy, psixologik, iqtisodiy, ma'naviy, jinsiy ta'sir qilish harakatlaridir[3].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har to'rtinchi oilada oilaviy zo'ravonlik holatlari qayd etilgan. Oila ijtimoiy-psixologik inqiroz holatida bo'lsa, undagi nikoh va oila mafkurasi, erkak va ayollarning oilaviy hayotiga qarashlari, oiladagi rollarning taqsimlanishi, er-xotinning sadoqati, turmushning tabiatida zo'ravonlik xolati kelib chiqish extimoli ortadi. Bunday psixologik krizis vaziyatlarda ko'pchilik oilalar adaptatsiyani talab qiladigan barcha psixologik qiyinchiliklarni yengishmaydi. Natijada umumiy emosional keskinlik, tajovuzkorlik darajasi, norozilik kuchayadi, janjal va nizolar tez-tez uchraydi va bu ko'pincha oiladagi zo'ravonlikka olib keladi. Oiladagi zo'ravonlik nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki psixologik jihatdan shaxs psixik taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotning dolzarbligini quyidagilardan kelib chiqadi: Psixologik zo'ravonlik fenomenini chuqurroq tushunishning ilmiy va amaliy ehtiyojining mavjudligi, nikoh munosabatlaridagi psixologik zo'ravonlik hodisasini ilmiy tushunish zarurati: turlari, tarqalishi, xavf omillari va boshqalar muammoning dolzarbligini belgilab beradi. Bizningcha, oilada zo'ravonlikning kelib chiqishiga ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklardan tashqari bir qator omillar ham ta'sir qiladi. Oilada o'zaro bir-birini hulq-atvorini, xis-tuyg'ularini nazorat qilib boradigan jarayonlar, vaziyat va xolatlar mavjud. Biroq, agarda bu jarayonda oila a'zolari o'z

xulqini nazorat qila olmasa, oilada kundalik janjallar, xaqoratlar, tayziq va kamsitishlar natijasida oila a`zolarida(asosan, ayollar va bolalarda) surunkali stress holati kuzatilib, uning fiziologik, xissiy-emosional va intellektual tomonlari nomoyon bo`ladi.

“Qurbon” pozitsiyasidagi shaxsning psixo-emotsional xolati, “zo`ravon” shaxs tipining asosiy psixologik xususiyatlari sababli oilada psixologik zo`ravonlik xolatlarining sodir bo`lishi extimolini oshiradi. Oilaviy zo`ravonlik fenomenidagi gender tafovutlar bo`yicha emperik tadqiqotlar (O.A.Voronina, O.L.Danilova, T.A.Zabelina, N.V.Solneseva va boshqalar), S.N.Enikolopova oiladagi zo`ravonlikning dinamikasini, jismoniy zo`ravonlikning psixologik mexanizmlarini, P.V.Rumyanseva oiladagi gender tenglikni ta`minlashning psixologik mexanizmlari to`g`risidagi fikrlari asos qilib tadqiq qilganlar. Oiladagi psixologik zo`ravonlikning tipologiyasi markazida bir qator xususiyatlarga e`tibor qaratilgan. Bunday xususiyatlar yosh (masalan, bolalar yoki qariyalarga nisbatan zo`ravonlik), jins (ayollar yoki erkaklarga nisbatan zo`ravonlik), sog`liq holati (nogiron va muomalaga layoqatsizlarga nisbatan zo`ravonlik), oilaviy munosabatlar (oilaviy zo`ravonlik, yaqin qarindoshlar), etnik kelib chiqishi, ijtimoiy mavqe, kasb va boshqalarni o`z ichiga olishi mumkin[4]. Boshqa bir tipologiyaga ko`ra zo`ravonlik harakatlarining tabiatiga asoslanadi va zo`ravonlikning jismoniy, psixologik (emotsional), jinsiy va iqtisodiy zo`ravonlik kabi kabi turlari farqlanadi. Zo`ravonlikning psixologik aspekti, zo`ravonlikning faol, passiv va interaktiv tomonlarini ajratish imkon beradi.

Zo`ravonlikning psixologik aspektlari quyidagilarni o`z ichiga oladi: psixologik ta`sirlar (tahdid, haqorat, haqorat, ortiqcha talablar, ortiqcha tanqid, yolg`on, izolyatsiya, xatti-harakat va tajribani taqiqlash, salbiy baholash, insonning asosiy ehtiyojlarini buzish va boshqalar).

Oiladagi zo`ravonlik sabablari (omillari) modellari an'anaviy ravishda quyidagilarga bo`linadi (D.Ivaniek, K. Bron, R. Lang, E. Miller va boshqalar):

a) ota-onalarning zo`ravonligiga moyil bo`lgan psixopatik (spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar, o`zini o`zi past tutish, ammatizm, kommunikativ qobiliyatsizlik, ijtimoiy izolyatsiya, ijtimoiy, psixologik va psixiatrik muammolar, ruhiy tushkunlik, o`zini tuta bilmaslik, o`z joniga qasd qilish moyilligi, tajovuzkorlik, onaning erta homiladorligi, bolani yo`qotish va va hokazo) va bolalar (prematürite, og`riq, istamaslik, jismoniy va aqliy zaifliklar va boshqalar);

b) zo`ravonlikni tushuntiruvchi ijtimoiy, tashqi (ijtimoiy) omillar va sharoitlar (qashshoqlik, kam daromad, ishsizlik, ijtimoiy izolyatsiya va yopiq oila, aholining haddan tashqari ko`pligi, ma'lumot va madaniy darajaning pastligi va boshqalar);

v) zo`ravonlikning psixologik va ijtimoiy omillarini birlashtirishga intilayotgan psixosotsial; ushbu modellarda zo`ravonlik omillari tarkibiy, vaziyatiy va kommunikativga bo`linadi, ikkinchisi oiladagi zo`ravonlikning asosiy va aniqlovchi belgilaridir: shaxslararo o`zaro munosabatlarning xususiyatlari zo`ravonlikning

strukturaviy va vaziyatli omillari uchun "inkubator" yoki "katalizator" dir, ikkinchi holatda esa kuchayish mavjud. Oilaviy zo'ravonlikning asosiy xususiyatlaridan biri vaqt o'tishi bilan takrorlanadigan hodisaligidadir. Oiladagi zo'ravonlikning "surunkali" holatida bir kishi doimo nazorat qilishga harakat qiladi va boshqalarning xatti-harakatlari va his-tuyg'ularini nazorat qilishga urinadi. Oilada psixologik zo'ravonlikdan keyin shaxsda;

- psixologik va ijtimoiy izolyatsiya;
- yaqinlar tomonidan patologik rashk yoki haddan tashqari g'amxo'rlikning namoyon bo'lishi;
- oila a`zolariga shaxsiy mulk sifatida qarash;
- sherikning kun tartibini nazorat qilish;
- ishga yoki maktabga borishni taqiqlash;
- ijtimoiy ahamiyatga ega odamlar doirasi bilan ijtimoiy aloqalarni saqlashni taqiqlash kabi holatlar kuzatiladi. Bizningcha, oilada zo'ravonlikni boshdan kechirgan ayollar bilan psixokorreksion mashg`ulotlar olib borish, ulardagi vaziyat bilan bog`liq shaxsiy xavotirlarini kamaytirib, ijtimoiy-psixologik adaptatsiyani ortishiga sabab bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. G`.B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N . A. Sog`inov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova-Oila psixologiyasi.Toshkent/"Sharq"-2008.-296 b.
2. M.Sultonova. Zo'ravonlikka uchragan ayollar bilan psixokorreksion mashg`ulotlar olib borish va koping strategiyalar/Metodik qo'llanma.Xiva 2020y- 45 b
3. Д. Э. Синюк, О. А. Павлюковец/ Механизмы психологической защиты, используемые женщинами, перенесшими домашнее насилие.16.02.2017г.360ст.
4. Ильина С.В. Влияние пережитого в детстве насилие на возникновение личностных расстройств // Вопросы психологии, 1997. — 64-77 с.
5. Лейкман Л. И. От теории к практике // Кризисный центр для женщин: опыт создания и работы. №5, 2011.С. 56-61.
6. Лысова, А. В. Насилие в семье: учеб. пособие / А. В. Лысова. – Владивосток : Изд-во Дальневост. Ун-та, 2001. – 205 с
7. М.В.Крюкова. Супружеское насилие в отношении женщин как социальная проблема Вестник Нижегородское университета им. Н.И.Лобоческого. Серия социальнье науки.2011№1(21)с/45-51 с
8. М.В.Крюкова. Супружеское насилие в отношении женщин как социальная проблема Вестник Нижегородское университета им. Н.И.Лобоческого. Серия социальнье науки.2011№1(21)с/45-51 с

9. Принося безопасность домой: борьба с насилием в отношении женщин в регионе .ОБСЕ.Сборник примеров хорошего опыта. Секретариат ОБСЕ, Офис Генерального Секретаря, Гендерная секция . Июнь 2009 г. 156-б.

